

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROOSINI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

ZARIF QORI TOSHKANDIYNING NAVOIY AN'ANALARIGA IJODIY MUNOSABATI

Shaxloxon KARIMOVA

Oriental universiteti dotsenti, PhD

DOI <https://doi.org/10.5281/zenodo.14804726>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Navoiy ijodiga turkiy xalqlar, jumladan, uyg'ur shoirlarining ijodiy munosabati ko'rib chiqildi. Ilk bor o'zbek jamoatchiligiga nomlari va asarlari hali tanish bo'lmagan Zarif qori Toshkandi, Barqi, Dilafkor kabi Sharqiy Turkistoniga ketib yashab ijod qilgan shoirlarning iste'dodli salaf ijodkordan olgan ilhom va ibrati o'laroq yaratgan g'azallari tahlil qilindi. Shakl va mazmun-mundarija, badiiy mezonlarga ko'ra o'xshash va farqli jihatlari, buyuk shoirga ijodiy hamfikr bo'lish va tadrijiy davom ettirish usulidan foydalanish malakalari tekshirildi.

Tayanch so'z va iboralar: adabiy ta'sir, ijodiy munosabat, she'riy vazn, qofsiya ilmi, adabiy mezon va o'lechov, shakl va mazmun, badiiy mahorat, poetik uslub.

Аннотация: В данной статье рассмотрено творческое отношение тюркских народов, в том числе уйгурских поэтов, к творчеству Навои. Впервые на основе вдохновения и творчества проанализированы газели поэтов, имена и произведения которых еще не знакомы узбекской публике, таких как Зариф Кори Ташканди, Барки, Дилафкор, уехавшие жить в Восточный Туркестан и творившие. пример они получили от талантливого предшественника. Проверялись форма и содержание, сходство и различие по художественным критериям, умение творчески работать с великим поэтом, использовать метод постепенного продолжения.

Ключевые слова и фразы: литературное влияние, творческий настрой, поэтический вес, наука о рифме, литературные критерии и мера, форма и содержание, художественное мастерство, поэтический стиль.

Abstract: In this article, the creative attitude of Turkic peoples, including Uyghur poets, to Navoi's work was considered. For the first time, the ghazals of poets whose names and works are not yet familiar to the Uzbek public, such as Zarif Qori Tashkandi, Barqi, Dilafkor, who went to live in East Turkestan and created, were analyzed, based on the inspiration and example they received from the talented predecessor. The form and content, similar and different aspects according to artistic criteria, the ability to be creative with the great poet and to use the method of gradual continuation were checked.

Key words and phrases: literary influence, creative attitude, poetic weight, rhyme science, literary criteria and measure, form and content, artistic skill, poetic style.

Adabiy ta'sir masalasi jahon adabiyotshunosligining dolzarb mavzulardan biri. Turkiy xalqlar adabiy-madaniy jihatdan bir-biriga ozuqa bergan, bir-biridan ijodiy ta'sirlangan. Jumladan, o'zbek-uyg'ur adabiyoti, jahonning hamma adabiyotlarida bo'lganidek, asrlar davomida bir-biridagi o'ziga xos an'analarini ijodiy rivojlantirib keldi. Sharqiy Turkistonning G'ulja, Qashqar, Yorkent, Xo'tan va Urumchi kabi qator yirik shaharlarida uyg'ur adabiyotining mumtoz an'analari qatori boshqa

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

xalqlar tajribasidan o'zlashtirilgan adabiy an'analar bag'rida ham shakllandi va o'zlaridan keyingi shoirlarga ham katta mакtab vazifasini o'tadi.

Nafaqat uyg'ur adabiyotiga, balki tili, madaniyatiga yaqin hamohang bo'lgan, o'zbek adabiyotidagi mumtoz shoirlardan buyuk o'zbek shoiri Alisher Navoiy ijodi ushbu ikki xalqning adabiy aloqalarini yanada mustahkam bog'lashda katta hissa qo'shgan badiiy yodnomasi bo'ldi.

Alisher Navoiyga ijodiy ergashishda uyg'ur shoirlari faollik ko'rsatganlar. Xirqatiy, Abdurahim Nizoriy, G'aribiy, Zaliliy, Muhammad Sodiq Qashg'ariy, Bilol Nozim kabi namoyandalari qatori hali nomi o'zbek adabiyotshunosligiga tanish bo'limgan bir qator ijodkorlar, jumladan, XX asr boshlarida yashab ijod etgan uyg'ur-o'zbek shoirlari ham bor. Bu masalalar ochiqlanishi Navoiy ijodi bilan birga boshqa o'zbek shoirlari she'riyatidan ta'sirlanish va masalasiga ham oydinlik kiritilgan bo'lardi. Shuningdek, uyg'ur va o'zbek adabiy aloqalarining shakl va usullari, qonuniyatları, adabiy uslublari, janrlari tipologiyasi xususiyatlariga oid muhim ma'lumotlar bera olishi bilan ahamiyatlidir.

Maqolada adabiyotshunoslikning so'nggi mezonlariga yondashgan holda tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, xolislik tamoyillari asosida ma'lumotlar yoritilgan bo'lib, uyg'ur shoirlarining Alisher Navoiy ijodiga munosabati va adabiy izdoshlik masalalariga munosabat tadqiq etilgan.

Umuman olganda, uyg'ur adabiyotshunosligida Alisher Navoiy ijodini o'rganish, shoir ta'sirida ijod qilgan uyg'ur shoirlari, adiblari va adabiyotshunoslari faoliyati bo'yicha yurtimizda ham uyg'ur adabiyotshunoslari Alisher Navoiy ijodi asosida ilmiy tadqiqotlar olib borganlar.

Adabiyotshunoslikda uyg'ur adabiyoti masalalariga Arshiddinov U. Mamatoxunov, S. Erkinov, R. Qodiriy, Sh.Umar, V.G'o'pur, A.Husayn, T. Aliyev, S.Mallaudov, I.Imirov, Q.Hasanov, H.Soliyeva kabi tadqiqotchilar munosib hissa qo'shdilar [1,2,3,4,5,6,7,8]. Bu yo'nalishda uyg'ur adabiyotida Navoiy an'analarini masalalarini tadqiq etgan M.Hamroyev, Yu. Muhsinov, R. Qodiriy, D. Ro'ziyeva va D. Rayhonov, Z.Qosimovalarning ilmiy ishlarini alohida ta'kidlash kerak [9,10,11,12].

Tadqiqotchi Z.Qasimova "Uyg'ur adabiyoti tarixida Alisher Navoiy ijodining o'rganilishi" maqolasida uyg'ur adabiyotining tarixiy taraqqiyoti, o'zbek-uyg'ur adabiy aloqalarida Alisher Navoiyning tutgan o'rni, Alisher Navoiyning uyg'ur adabiyotiga ta'siri kabi masalalari ilmiy tahlil qilingan. Bu masalani o'rganish orqali navoiyshunoslikning yangi qirralari va dolzarb masalalariga oydinlik kiritilishini to'g'ri ta'kidlaydi [Z.Kasimova,13:16].

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSONI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Tadqiqotchi olimlardan biri R.Qodiriy esa Navoiy ijodining uyg‘ur shoirlariga ijodiy ta’siri xususida tahlil va mulohazalar keltirib, uyg‘ur shoirlarining Alisher Navoiydan mumtoz turkiy adabiyotlarini o‘rganishlari, Navoiy asarlarining mavzu va syujetlariga murojaat qilishlarida deb tahlil qiladi. Bu kabi olimlarning tadqiqotlarida bevosita uyg‘ur va o‘zbek adabiy aloqalariga oid ko‘pgina ma’lumotlar ham berilgan [R.Qodiriy,14:89].

Adabiyotshunos X.Solihovaning ilmiy tadqiqot ishlari, asosan, uyg‘ur adabiyotida Navoiy an’analari, xamsachilik traditsiyasining davom etishi va uyg‘ur xamsanavislari ijodi tadqiqiga bag‘ishlangan [X.Solihova, 15:1995].

Urumchida ham Shinjolg avtonom rayoni Ijtimoiy fanlar akademiyasining ilmiy tadqiqot institutida o‘zbek adiblarining ijodi va adabiy merosi u yoki bu darajada tadqiq etib kelinmoqda. Bu ishlarda Qodir Akbar [Qodir Akbar, 16:1989] va Hurmatjon Fikrat [17;1995,2005] singari olimlar jonbozlik ko‘rsatmoqdalar.

Biz mazkur maqolada XX asr boshlarida yashab ijod etgan uyg‘ur-o‘zbek shoirlarining Navoiy ijodiga qiziqishlari va shoirning badiiy uslubida she’r bitishlari, poetik obraz yaratish mahoratidan ilhomlanishi qay darajada bo‘lganligini tahlil qilishni o‘z oldimizga maqsad qilganmiz.

She’riyatida chuqur insonparvarlik g‘oyalari va beqiyos badiiyati bilan butun turkiy dunyoni hayratga solib kelayotgan Navoiy ijodi uyg‘ur shoirlariga ham ijobiy ta’sirini ko‘rsatgan. Turkiy tilda ijod qilgan shoirlar borki, bu buyuk hayratdan bahramand bo‘lgan, ta’siriga tushgan. Bu shoirlar shaxsi va ijodi bilan yaqindan tanishib Navoiy ijodining mushtarak g‘oyaviy-badiiy jihatlariga hamohangligiga qiyosiy nazar solish kifoya. Ayniqsa, taxmislارaro asos g‘azallarda o‘sha vazn, o‘sha qofiyada, o‘sha badiiy yukni his qilgan holda ijodiy davomi ekanligi, yangi tashbehtar, badiiy unsurlar va teran falsafiy mazmunini davom ettirishga urinish bilan alohida ajralib turadi. Masalan, Zarif qori Toshkandiy¹ misralaridan biriga e’tibor qarataylik,

¹ Zarif qori Toshkandiy 1858-yili Toshkentda ziyoli xonadonda adabiyotga ixlosmandlar oilasida tug‘ilgan. Zarifiddin dastlabki tahsilni mahalladagi eski maktabda oladi. Zakovati yuqori va aqli teran bo‘lgani bois tahsilni tez orada yakunlaydi. U16 yoshidan adabiyotga, she’riyatga ixlosmandligi uchun she’riyat bilan erta shug‘ullangan. Badiiy so‘zga mehri tufayli kichikligidan badiiy ijod bilan shug‘ullana boshlagan. Toshkentdagи “Ko‘kaldosh” madrasasida ilm tahsili qilgan. Adabiyot, tarix, islom falsafasi tahsilida yaxshigina bilim egasi bo‘lgan. Ijtimoiy-siyosiy vaziyatning yomonlashuvi tufayli shoirning oilasi 1890-yillar atrofida Shinjolgga kelib o‘troqlashib, Qashqar, G‘ulja, Yorkent kabi shaharlarda yashagan. 1958-yili G‘uljada vafot etgan. Zarif Qori Hojining nomi katta olim, faylasuf va adib va tarjimon (arab tilidan) sifatida keng jamoatchilikka tanish bo‘lgan. Shingjolgda o‘sha davrda adabiy maktablar ham faoliyat yuritgani shoirning zamondosh ijodkorlar bilan olib borgan ma’rifiy –adabiy aloqalari va suhbatlari orqali ma’lum bo‘ladi. Zamonasining istedodli qalamkashlari Tajalliy, Furqat kabi shoirlar bilan ijodiy hamkorligi kuchli bo‘lib, butun umr ijodiy hamfikrlikda, do‘stlikda o‘tgan. Arab tilidan malakasi yuqori bo‘lgani bois Qur’oni tarjiima qilib, Bombayda nashr qildirgan. Tarixshunoslik masalasida ham zakovati yuqoriligidan o‘lka tarixi va ijtimoiy ahvolot bayoni tarzida Zarif Qori Toshkandiyning Shinjolg va O‘rta Osiyo ellari munosabatiga bag‘ishlangan “Farg‘ona va Qashqar tarixi” nomli asari ham bor. Bu mo‘tabar meros aynan Farg‘ona va Qashqarning o‘sha davrdagi ijtimoiy-siyosiy ahvoli haqida bo‘lib, tarixni haqqoniy o‘rganishda ahamiyati yuqori bo‘lgan asarlardan hisoblanadi.

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Gul yuzungsiz bog‘ aro bulbul kabi zor o‘lmisham,
Hajri xori sanchilib bag‘rim ado xor o‘lmisham.
Lutf aylab bir kelib qoshimg‘a ahvolimni ko‘r,
Kimsa yanglig‘ man saning hajringda abgor o‘lmisham [16.114-140].

Alisher Navoiy g‘azallari mukammalligini ta‘minlaydigan omillardan biri mohiyat va hodisa hamda ular tanosubining e’tiqod va muayyan falsafiy ta’limot asosida idrok etilishi bilan bog‘liqdir deb ta’kidlagan edi adabiyotshunos olima K.Mullaxo‘jayeva.

Shuningdek, Hizr, Nuh, Iso, Sulaymon, Yusuf, Qorun nomi bilan bog‘liq Qur’oniy qissalarga murojaat orqali Navoiy g‘azallarida talmeh san’atining go‘zal namunasini uchratsak, Zarif Qori Toshkandiy she’riyatda bu usuldan samarali foydalangan.

Zarif qori Toshkandiy va Navoiy ijodidagi ruhan yaqinlik va ijodiy an’anaviylikni odamzot tabiati, xususan, badxulq kimsalarga xos insoniylikka zid xislatlarning qoralanishida ham ko‘rinadi.

Zarif Qori Toshkandiy o‘z asarlarini yaratishda xalq adabiyoti va an’analari bilan ham hamohang bo‘lishga intilgan. U o‘zining she’rlarida xalqning urf-odatlari, ijtimoiy turmush tartibotlari, mehnati va yashash tarzini tasvirlab, o‘z davrining hayotini mahorat bilan gavdalantira olgan. Shu bilan birga uning she’rlarida xalqning orzu-umidlari, azob-uqubatlari hamda dunyoqarashlari yoritilgan. Misol uchun, Navoiyning “Navodur un nihoya” devoniga kiritilgan “Telba ko‘nglum yorasi hadsiz tani uryon aro” g‘azaliga hamohang holda yozilgan g‘azalida shunday bayt bor:

Ul pari ishqin buzuq ko‘nglum aro ettim nihon,
O‘ylakim pinhon etarlar ganjni vayron aro (112-bet).

Xalqona rivoyatlariga ko‘ra, katta-katta xazinalar g‘orlar va xaroba (chug‘z)lardan topilgan. Mahbuba ishqisi oshiq uchun eng katta ganj-boylik, bu qimmatbaho xazinani buzuq ko‘ngli ichra yashirganini xalqona tamsil ifoda orqali sodda, biroq yodda qolarli tarzda tasvirlaydi.

Yuqoridagi tahlillardan quyidagicha xulosa qilish mumkin:

1. Buyuk shoir Alisher Navoiy ijodi barcha turkiy xalqlar qatorida, uyg‘ur shoir-u adiblariga ham tunganmas ilhom va ibrat bergen.
2. Yaqin o‘tmish – XX asr boshlari Shinjonga yashab o‘tgan shoirlar ijodida ham navoiyona ohanglarda, navoiyona uslubda g‘azallar yaratish, obrazlar silsilasini davom etttirish an’anasi davom etgan.
3. Shakli jihatdan aruziy qoidalar, qofiya tartibi va unga qo‘yilgan talablar ham o‘zgarmagan, sodda yengil, o‘ynoqi vaznlarda, sof turkiycha so‘zlardan qofiyaga

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

tanlab qo'llash, radifdan foydalanish ham milliy ruhda davom ettirilgan holda o'ziga xosliklar bilan ajralib turgan.

4. Uyg'ur-o'zbek shoirlari o'rtasidagi adabiy aloqalarning qay usulda amalga oshganini o'rganish orqali ham navoiyshunoslikning yangi qirralarini kashf etishda, ham uyg'ur shoirlari ijodiga doir yangi ohori to'kilmagan masalalarni olib berishda ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar ro'uxati

(Использованная литература / References):

1. Arshiddinov B. Epic genre in the works of Uyghur classics. - Almuta, 1988).
2. Маллаудов С. Тарихий достонлар. Тўплам: Уйғур адабиёти ва фольклоридаги жанрлар. Алмута, 1980.
3. Маматохунов У. Уйғур адабиёти классиклари. – Тошкент, 1960.
4. Мугинов А. Описание уйгурских рукописей инс-та народов Азии. – М., 1962 (Muginov A. Description of Uyghur manuscripts of the Institute of Asian Peoples - M., 1962).
5. Мухлисов Ю. Уйғур классик қолязмаларининг каталоги. – Урумчи, 1956.
6. Райхонов Д. Место и значение произведений Навои в литературной жизни уйгуров. АКД. – Алмута,
7. Уйғур адабиётининг қисқача тарихи. Алмута, 1983.
8. Мухлисов Ю. Асрлар ва асарлар. Алмату: Наука, 1973 (Muxlisov Yu. Ages and works. – Almaty: Nauka, 1973).
9. Хамроев М. Тарих, назария, маҳорат. – Алмута, 1964 (Xamroev M. History, theory, skill. – Almuta, 1964).
10. Райхонов Д. Место и значение произведений Навои в литературной жизни уйгуров. АКД. – Алмута, 1992 (Rayxonov D.The place and significance of the works of Navai in the literary life of the Uyghurs.AKD. - Almuta, 1992).
11. Розиева Д. Низорий ижодида Навоий традицияси. Тўплам: Уйғур адабиётидики традиция ва наваторлик масилилири. – Алмута, 1976
12. Уйғур адабиётининг қисқача тарихи. Алмута, 1983. Қодирий Р. Уйғур адабиётида Навоий анъаналари / “Адабий мерос”. 1963. 1-китоб. 52-20.
13. Kasimova Z. Уйғур адабиёти тарихида Алишер Навоий ижодининг ўрганилиши. Ўтмишга назар / взгляд в прошлое / look to the past №5 (2020), 56-B.
14. Қодирий Р. Уйғур адабиётида Навоий анъаналари / “Адабий мерос”. 1963. 1-китоб. 52-606 (Qodiriy R. Navoi traditions in Uyghur literature / “Literary heritage”. 1963. Book 1. 52-60p).
15. Солиҳова Х. Уйғур достончилиги ва насри тараққиётида Алишер Навоий “Хамса”сининг ўрни //фил.ф.док.... диссертацияси. – Тошкент: ЎзМУ 1995
16. شىنجاڭ ئۆزبېكستان يازغۇچىلارى. نەشر قىلىشقا تەبىyarلanguan: قادىر ئەكبار. شىنجونگ خالق نەھرىيەتى 1989 شىنجونگ ўзбек адилари. Нашрга тайёрловчи: Қодир Акбар. Шинжонг халқ нашриёти.1989 й., 114 –140 бетлар.
17. Ҳурматжон Фикрат., Қодир Акбар. Ўзбек адабиёти тарихи. Урумчи: Шинжонг халқ нашриёти, 2005. (уйғур тилида) (Hurmatjon Fikrat., Qodir Akbar. History of Uzbek literature.Urumchi: Xinjiang People's Publishing House, 2005. (in Uyghur).
18. شىخىڭ ئۆزبېك شلەرلەرى ئجادىياتىدە زەۋقىي تەسىرى. شىنجاڭ ۋۇئۇرستىتى ئامىيى ژۇرنالى {پەسەپە ئەجتمائى پەن 12- سان 2012- يىلى 4- ش.Каримова. Шинжонг ўзбек шоирлари ижодиётида Завқىй тაъсири. Шинжонг Давлат университети хабарномаси. 2012-yil, 4-sون.

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MERO SINI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

19. Каримова Ш. Ўзбек мумтоз шеъриятида поэтик мазмун ва янгиланишлар (Завқий ва Мухсиний ижоди мисолида). Филология фанлари номз. ...дисс. – Тошкент, 2018
20. Mullaxo'jayeva K.Haqiqatning majoziy talqini//Alisher Navoiy va XXI asr. Respublika ilmiy-nazariy anjumani. Toshkent, 2016.23-may. 85-bet.